



## ASOSIY VOSITALARDAN VA ISHLAB CHIQARISH ASBOB- USKUNALARIDAN SAMARALI FOYDALAMSHNI TAHLIL QILISH

**Turayeva Gulizahro**

*Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi*

**Mamaraximov Azizbek**

*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

**Botirov Saidabror**

*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

**Jalolov Samandar**

*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korxonalarda foydalanadigan uzoq muddatli aktivlarni tan olish, baholash va hisobga olishda ularning buxgalteriya balansida aks ettirishning statik va dinamik usullari muhim ahamiyatkasb etishi ko'rib chiqilgan. Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashib borishi, O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi o'z navbatida, mavjud qonunchilik asosini doimiy ravishda takomillashtirib, uni xalqaro me'yorlar va standartlarga moslashtirib borishni hamda mulkiy jihatdan moddiy texnika ta'minotini ham doimo yangilab borishni taqozo etadi.

**Kalit so'zlar:** asosiy vositalar, uzoq muddatli aktivlar, balans, qoldiq, qiymat.

### **Kirish**

Asosiy vositalar – korxona xo'jalik faoliyatini yuritishda uzoq davom etadigan vaqt mobaynida, mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish yoki ma'muriy va ijtimoiy-madaniy funksiyalarni amalga oshirish jarayonida foydalilaniladigan moddiy aktivlardir. Asosiy vositalarga yer, yerni obodonlashtirsh, binolar, inshootlar, uzatish moslamalari, mebel va ofis jihozlari, kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi transport vositalari, ishchi va mahsuldor hayvonlar va hokazo shunga o'xshashlar kiradi. Asosiy vositalarni hisobga olish uslublari №5-«Asosiy vositalar» nomli BHMSda keltirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 20 yanvar 2004 yil 1299-raqam bilan ro'yxatga olingan).

### **Muhokamalar va natiyalar**

Korxonalarda asosiy vositalar quyidagi usullar orqali kirim qilinadi:

- a) sotib olish; b) ta'sischilarning hissasi tariqasida;
- c) bepulga olish; d) Moliyaviy yoki operativ ijaraga olish.

Asosiy vositalar hisobi 0100—“Asosiy vositalar” aktiv schyotda yuritiladi. Demak, asosiy vositalar ta'sischilardan hissa tariqasida olinsa, uning oldin foydalilanligi va foydalamanligiga qarab buxgalteriya yozuvlari aks ettiriladi. Asosiy vositalarni kirim qilish AV-1, ya'ni “Asosiy vositalarni qabul qilish topshirish” dalolatnomasida rasmiy lashtiriladi. Ushbu hujjatda qabul



qilinayotgan asosiy vositalar bilan bog‘liq ma’lumotlar aks ettirilgan bo‘lib, shu ma’lumot asosida buxgalteriya yozuvlari aks ettiriladi. 1-misol. Yangi asosiy vositalar ta’sischilardan olindi. Boshlang‘ich qiymati 1000000 so‘m. Debet 0110-0190 Kredit 4610

Asosiy vositalar bepul ko‘rinishida ham korxonalarda qabul qilinishi mumkin.

Ushbu jarayon yuzasidan quyidagi xususiyatlarga e’tiborni qaratmoq kerak:

1. Asosiy vositalarni yangi va oldin foydalanganligiga;

2. Asosiy vositalarni davlat yoki nodavlat korxonasiga bepul kirim qilinayotganligiga.

Asosiy vositalar ulami takror ishlab chiqarishda dastlabki qiymati (boshlang‘ich qiymat) bilan birga qoldiq va tiklash qiymati bo‘yicha hisobga olinadi. Qoldiq qiymati hisobda asosiy vositalaming real bahosini, ya’ni dastlabki qiymatidan eskirish summasini chegirib tashlagan holda hisoblash uchun qo‘llaniladi. Tiklash qiymati hozirgi haqiqiy xarajatlami, ulaming haqiqiy tannarxini tavsiflaydi. Asosiy vositalaming dastlabki qiymatini tiklash qiymatiga o‘tkazish qayta baholash orqali amalga oshiriladi. Asosiy vositalar ko‘p hollarda korxona aktivlarini asosiy qismini tashkil qiladi va shuning uchun moliyaviy hisobotda uning moliyaviy holatini ko‘rsatishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Agar korxonaga kelgusida aktiv bilan bog‘liq iqtisodiy foyda kelib tushishiga ishonch bo‘lsa va aktiv qiymatini aniq baholash mumkin bo‘lsa, asosiy vositalar aktiv sifatida tan olinadi.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda asosiy vositalar hisobi va ulardan samarali foydalanish korxona moliyaviy holatini aks ettirishda muxim ahamiyat kasb etadi. Asosiy vositalar hisobining ahamiyati va vazifalari Korxonaning ishlab chiqarish-xo‘jalik jarayoni nafaqat material, mehnat va moliyaviy resurslaridan foydalanish hisobiga balki asosiy vositalardan foydalanish hisobiga ham ta’minlanadi. Har qanday ishlab chiqarish jarayoni tadbirdorlik qobiliyati asosida mehnat, mehnat vositalari va mehnat buyumlarini birlashtirilishidan iborat. Raqobatlashgan bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishida, undagi mehnat vositalarining takomillashishiga, rivojlanish va ulardan samarali foydalanish darajasiga bevosita bog‘liqdir. Barcha ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishda mehnat vositalari asosiy rolni o‘ynaydi. Buxgalteriya hisobida mehnat vositalarini asosiy vositalar deb yuritiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.B.Muxametov. B.Matasulov.G.Turayeva T.:Buxgalteriya hisobi darslik. Ziyo nashr. 2023.-347 b



2. A.B.Muxametov. U.Chorshanboyev. G.Turayeva T.:Boshqaruv hisobi darslik. . Ziyo nashr. 2024.-169 b
3. Pokiza, U., Mahbuba, T., Eldor, A., & Gulizahro, T. (2023). SANOAT SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 1(6), 222-224.
4. qizi To'yeva, M. S. (2022, November). YANGI O 'ZBEKISTON ORIFA AYOLLARI VA G 'ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
5. Gulizahro, T., Eldor, T., Asilbek, S., & Muhammadqodir, B. (2023). Asosiy vositalar hisobi va ulardan samarali foydalanish tahlili. " *Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari*" mavzusidagi onlayn konferensiyasi, 2(10), 67-69.
6. Madinabonu, A., Nurjahon, N., & Mehriniso, M. (2023, April). BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTI. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 4, pp. 93-95).
7. Abdurahmanova, M., & Olimova, M. (2022). KORPUS LINGVISTIKASINING AHAMIYATI. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).
8. Abdurahmanova, M., & Olimova, M. (2022, June). TEZAURUSDAGI O 'ZARO BOG 'LANISHLAR. In «УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЗДАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОЗДАНИЕ ВОПРОСЫ» Международная научно-практическая конференция (Vol. 1, No. 1).
9. Tursunaliyevna, A. M. (2022). TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV YO'NALISHLAR. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION, 1(2), 113-116.
10. Abdurahmanova, M., & Rayimjonova, M. (2021). KORPUS LINGVISTIKASIDA TARJIMASHUNOSLIK MASALASI. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).